

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYAVIY SOATLARNI TEXNOLOGIYALASHTIRISH MUAMMOLARI

Ochilova Nigora

Qarshi Davlat Universiteti dots.

Eshmatova Go'zaloy Ziyoyidin qizi

Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Umarova Mubinaxon Ziyoyidin qizi

Andijon Davlat Pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7394559>

Annotatsiya. Maqolada umumta'lim maktablarida o'tkaziladigan tarbiyaviy soat darslarining mazmunidan kelib chiqqan holda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llash zarurati, texnologik usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, qadriyat, innovatsiya, texnologiya, tarbiyalanuvchi, o'yin, shaxs.

ПРОБЛЕМЫ ТЕХНОЛОГИИ УЧЕБНЫХ ЧАСОВ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Аннотация. В статье освещена необходимость, технологические методы применения в дошкольных образовательных организациях, исходя из содержания уроков воспитательного часа, проводимых в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: воспитание, ценность, инновация, технология, воспитатель, игра, личность.

PROBLEMS OF TECHNOLOGY OF LEARNING HOURS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Abstract. The article covers the necessity and technological methods of application in pre-school educational organizations, based on the content of educational hour classes held in secondary schools.

Keywords: education, value, innovation, technology, nurturing, play, person.

Yurtimiz taraqqiyoti har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish masalasi bilan bog'liq. Buning uchun esa avvalo ularning ongida yangicha dunyoqarashni, mustaqil fikrlashni, mustaqil yashashni, mustaqil ishlashni hamda axloqiy fazilatlarini yuksak darajada shakllantirish kerak. I.Karimov "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarida yoshlarimizning tarbiyasiga alohida to'xtalib, «Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillilik, millatidan qat'iy nazar odamlarga xayrihohlik bilan munosabatda bo'lish, o'z g'alar kulfatiga hamdard bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori hisoblanadi. O'zbeklar diyoriga, o'z Vataniga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlarga, ma'rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-ehtirom O'zbekiston aholisiga xos fazilatdir" degan edi.[1.46]

Bizga ma'lumki, shaxsning shakllanishi tarbiya jarayonida amalga oshiriladi, tarbiya esa bola dunyoga kelgan kundan boshlab amalga oshiriladi. Rivoyat qilishlaricha, bir kishi ikki oylik farzadini Ibn Sino huzuriga olib boradi va bolasining tarbiyasi bilan qachondan boshlab shug'ullanish lozimligini so'raydi. Ibn Sino esa afsus siz ikki oyga kech qolibsiz, degan javobni beradi. Bu rivoyatdan qorinib turibdiki, bola tarbiyasi kechiktirib bo'lmas masaladir.

Mazkur ehtiyoj va bugungi zamon pedagogikasi oldiga qoʻyilayotgan talablar asosida tarbiyaviy soat oʻqitish tarbiyaviy ish shakli sifatida maktabgacha taʼlim tashkilotlarida texnologiyalashtirish zaruratini talab etmoqda.

Bolalarga sifatli taʼlim-tarbiya berish, ularni Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda tarbiyaviy soatlarning oʻrni beqiyosdir. Bugungi kunda maktabgacha taʼlim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarining ahamiyatini kuchaytirish, tarbiyaviy ishlarni texnologiyalashtirish eʼtibor talab qilinayotgan sohaga aylanib boryapti. Bizga maʼlumki, tarbiyaviy soat - tarbiyaviy ish shakli sifatida asosan umumtaʼlim maktablarida olib boriladi. Maktabgacha taʼlim sohasida aynan tarbiyaviy soat tashkil qilish toʻgʻrisida adabiyotlarda yetarlicha maʼlumot toʻplanmagan. Shuning uchun aynan tarbiyaviy soatlarni texnologiyalashtirish zarurati mavjud.

Pedagogik texnologiya - bu oʻqitishga oʻziga xos boʻlgan yangicha (innovatsiya) yondashuvidir. Innovatsion texnologiyalar noʻnʼanaviy usul asosida taʼlim berish bu avvalo bolalardagi mantiqiy tafakkurni yuksaltirishga xizmat qiladi. Hozirgi globallashuv jarayonida tarbiyaviy ongni yuksaltirish, bolalarning maʼnaviy bilimlarini oshirish borasida samaradorlikka erishish imkoniyati zarurligi bois yangi pedagogik texnologiyalarga boʻlgan qiziqishlar va intilishlar kuchayib bormoqda. [2.27]

Tarbiyachi pedagog zamonaviy usulni tanlar ekan avvalo, kerakli vositalarni oldindan tayyorlamogʻi lozim. Hozirda amaliyotchilarda shunday fikr mavjudki, u ham boʻlsa: oʻzaro interfaol usullarda ishlaganda pedagog kam harakatlanadi, bolalar koʻproq ishlab, muammoning yechimini oʻzlari topadi. Bu qarash mohiyatan sayoz xulosadir. Chunki oddiy usulmi, yoki interfaol usulmi pedagog jarayonning egasidir. U mashgʻulotgacha bajargan ishining sifati, vositalarning toʻgʻri tanlanishi jiddiy ahamiyatga ega. Agar vositalar koʻp talab etilgan usul qoʻllanilsa, demak pedagog mashgʻulotgacha tegishli harakatini amalga oshirgan hisoblanadi. Agar jarayonda pedagog koʻp harakat qilsa, demak tanlagan usuli shuni taqozo etadi yoki kerakli jihozlarni oʻz vaqtida tayyorlamagan hisoblanadi. Interfaol usullar pedagogni har doimdagidan ham koʻproq ijod qilishga, masʼuliyatli boʻlishga chorlaydi. Yaʼni ishtirokchilarning barchasi jarayonda faol boʻlishi taqozo etiladi.

Tarbiyaviy soat oʻqitish mashgʻulotlarini oʻtish va mazkur mashgʻulot ishlanmalaridan foydalanishda tarbiyachi ijodiy yondoshgan holda yangi pedagogik texnologiyalar asosida har xil qiziqarli oʻyinlar orqali noʻnʼanaviy tarzda tashkil qilishi mumkin.

Tarbiyaviy soatlarda bunday mashqlarning misol sifatida shunday turlarini yaratish mumkin:

«**Ismlar**» oʻqitish. Birinchi bola oʻz ismini aytadi. Soʻngra esa ismi qay harfdan boshlansa, xuddi shu harf bilan boshlanadigan oʻz fazilatlaridan birini aytib oʻtadi. (masalan, Shoir-shoʻx). Ayni paytda uning shu xarakterini ifodalaydigan harakatlar bilan aks ettirib berish mumkin.

«**Ism tarixi**» bolalar navbat bilan nima uchun aynan shu ism va kim tomonidan qoʻyilganligi haqida soʻzlab beradilar.

«**Men oʻn yildan soʻng**» Har bir bola oʻz ismini aytadi va oʻn yildan keyingi hayoti haqida soʻzlaydi.

«**Sevimli jonivorlar**» Har bir bola, agar iloji topilganda, qanday jonivorga aylanib qolishini xohlashini aytadi. Hayvonning nomi unga xos boʻlgan harakatlar bilan koʻrsatiladi.

«**Sizni tanishtirmoqchiman**» Bolalar guruhi juftliklarga ajratiladi va shundan soʻng har bir bola oʻz sherigini guruh ahzolariga tanishtiradi.

«**Bolalagimdan qolgan toshcha**». Kichik tosh-guruh boʻylab navbat bilan uzatiladi va uni tutib turgan bola ismini aytadi, hamda bolaligidan qolgan qiziq voqealarni soʻzlab beradi.

Innovatsion pedagogika tarbiya jarayonini pedagog va tarbiyalanuvchilar oʻrtasidagi oʻzaro taʼsir jarayoni sifatida taʼriflab, uning mohiyati tarbiya jarayoni subʼyektlariga oʻz qobiliyatlarini qoʻllash uchun sharoit yaratib berilishi deb koʻrsatadi. Bunda asosiy maqsad tarbiyalanuvchilarni oʻz-oʻzini tarbiyalash, oʻz-oʻzini rivojlantirish, oʻz qobiliyatlarini qoʻllashga yoʻnaltirish hisoblanadi.[3.40]

Xulosa sifatida maktabgacha taʼlim tashkilotlarida quyidagi amaliy ishlarni tadbqiq etish joiz deb topildi:

Birinchidan, tarbiyaviy soat mashgʻulotlarining mazmuni, turlari va yoʻnalishlarini tahlil qilish;

Ikkinchidan, maktabgacha taʼlimda tarbiyaviy ish shakli sifatida tarbiyaviy soat mashgʻulotlaridan foydalanish texnologiyasini ishlab chiqish;

Uchinchidan, tarbiyaviy soat oʻtkazish jarayonida bola shaxsini shakllantirish omillarini aniqlash;

Toʻrtinchidan, ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida tarbiyaviy tadbirlar oʻtkazish va samaradorlik jihatlarini ommalashtirish zarur.

Koʻrinib turiptiki, taʼlim qanchalik rivojlanishning yuqori pogʻonalari koʻtarilmasin u tarbiyaning inson hayotidagi ahamiyatini oʻzida mujassamlashtira olmaydi. Shuning uchun yosh avlodga, avvalo tarbiya beriladi, ijtimoiy hayot va madaniy qadriyatlarga sadoqat ruhi uygʻotiladi. Biz uchun balandparvoz tuyilishi mumkin boʻlgan milliy odatlarimiz tub mohiyatida ham tarbiyaviy taʼsir koʻnikmalari uygʻunlashtirilgan.

REFERENCES

1. Karimov I.A. O'zbekistonning istiqloq va taraqqiyot yo'li. - T.: O'zbekiston, 1992, 46 b
2. N.X.Avliyoqulov, N.N.Musayeva, Pedagogik texnologiya, Toshkent – 2012, 27 bet
3. N.M.Oʻrinova, M.O.Uralova, Taʼlim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuv, Fargʻona – 2011, 40 b
4. Boltayeva F. A., Ibrohimova N. N. Maktabgacha taʼlimda integral darslar oʻ innovatsion loyiha sifatida. Science and Innovation. International scientific journal. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1t7x8egAAAAJ&citation_for_view=1t7x8egAAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC
5. Boltayeva F. A. Esonaliyeva O. Yoshlar hayotida virtuallashtirish sabablari va omillari. Fan, taʼlim va amaliyot integratsiyasi FTAI, Jild: 03, Nashr: 06, June 2022. 232 b <https://bilig.academiascience.org/index.php/isepsmj/article/view/588>
6. F.A.Boltayeva. The Essence of Integrating Innovative Technologies in Preschool Education. Pindus Journal Of Culture, Literature and ELT. 110 b <https://literature.academicjournal.io/index.php/literature/article/view/256>
7. THE IMPORTANCE OF THE PROJECT METHOD IN PERSONALITY-ORIENTED EDUCATION Shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlimda loyiha metodining ahamiyati M. Olamova, D.Maʼmurova Oriental Journal of Social Sciences SJIF for 2022:5.908 215-

- 221b.https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zK2c628AAAJ&citation_for_view=zK2c628AAAJ:9yKSN-GCB0IC
8. MU Olamova Farg'ona davlat universiteti II bosqich magistranti RN To'ychieva QPIIV bosqich talabasi
<https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=1184191814673959234&btnI=1&hl=ru>
 9. ILG 'OR AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MAKTABGACHA TA'LIMNI TAKOMILLASHTIRISH KM Otajonovna, O Mamura, BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2022
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zK2c628AAAJ&citation_for_view=zK2c628AAAJ:IjCSPb-OGe4C
 10. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIGA MULTIMEDIALI DASTURLARNI TADBIQ ETISH ORQALI TA'LIMDA QULAY MUHIT YARATISH Mamura U. Olamova
<https://www.supportscience.uz/index.php/ojss/article/download/346/288/445>